

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA REAL DAROMADLARINI OSHIRISHDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI ROLINI BAHOLASH

Elov Olimjon Komilovich

Navoiy davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonidagi o'zgarishlarning bandlikka ta'siri ko'rib chiqilgan. Uning umumiy bandlik hamda kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soniga ta'siri korrelyatsion-regression tahlillar asosida baholangan. Shuningdek, bandlikni ta'minlashning muhim natijasi bo'lgan jon boshiga real daromadlarga kichik tadbirkorlik subyektlari sonidagi o'zgarishlar ta'siri baholangan. Olingan natijalarga tayanilgan holda, mintaqada kichik tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va bandlikni ta'minlashdagi rolini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik subyektlari, bandlik, real daromad, korrelyatsion tahlil, regression tahlil, determinatsiya koeffitsiyenti, avtokorrelyatsiya.

Аннотация

В данной работе рассмотрены изменения количества действующих субъектов малого бизнеса в Навоийской области, а также рассмотрено их влияние на занятость. Оценено их влияние на общую занятость и численность занятых в субъектах малого бизнеса на основе корреляционно-регрессионного анализа. Также оценено влияние изменения количества действующих субъектов малого бизнеса на реальный доход на душу населения, что является важным результатом обеспечения занятости. На основе полученных результатов разработаны предложения и рекомендации, которые служат повышению роли субъектов малого бизнеса в развитии и занятости региона.

Ключевые слова: субъекты малого предпринимательства, занятость, реальные доходы, корреляционный анализ, регрессионный анализ, коэффициент детерминации, автокорреляция.

Annotation

In this paper, the changes in the number of active small business entities in the Navoi region were analyzed, as well as their impact on employment. The effects on total employment and the number of employees in small business entities were evaluated using correlation-regression analysis. Additionally, the impact of changes in the number of active small business entities on real per capita income, which is a significant result of employment provision, was assessed. Based on the obtained results, suggestions and recommendations were developed to enhance the role of small business entities in regional development and employment.

Key words: small business entities, employment, real income, correlation analysis, regression analysis, coefficient of determination, autocorrelation.

KIRISH

Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda kichik va o'rta biznes subyektlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ko'pchilik mamlakatlar kichik va o'rta korxonalarini sanoatni rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko'rib, iqtisodiy rivojlanishning asosi deb biladi [1]. Kichik va o'rta biznes qashshoqlikni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga erishishda muhim rol o'ynaydi. Raqobatni shakllantirish orqali raqobatbardosh sanoat korxonalarini barpo etish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi bandligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi [2]. Bandlikni ta'minlash, o'z navbatida, aholi ixtiyordagi daromadlarini oshirib, yalpi talab o'sishiga xizmat qiladi. Natijada daromadlarning oshishi turmush darajasini yaxshilab, qashshoqlik darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari hamda statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlari butun dunyoda va mamlakatlarda bandlikni ta'minlashda muhim manba bo'lib, jami ish o'rinlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'ini tashkil qiladi [3,4].

Mamlakatda aholi bandligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish va muhim ijtimoiy muammo bo'lgan kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Shu sababdan, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosi bo'lgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish alohida e'tibor qaratilgan.

Strategiyada xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga, eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish masalalari alohida maqsadlar sifatida belgilangan [5].

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va o'rta biznes iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va ijtimoiy farovonlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [6,7]. Amaliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kichik va o'rta biznes nafaqat rivojlangan, balki past va o'rta daromadli mamlakatlarda ham ish o'rinlarini yaratishda muhim manba hisoblanadi. Bu kabi davlatlardagi rasmiy bandlikning uchdan ikki qismidan oshig'i soha vakillarining hissasiga to'g'ri keladi [8].

Tadqiqotlar natijalariga asoslanib, kichik va o'rta korxonalar ish o'rinlarini yaratish va bandlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi [9]. Kichik biznesning ish o'rinlarini yaratish va bandlikni ta'minlashdagi rolini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, 250 dan kam ishchiga ega bo'lgan kichik va o'rta biznes subyektlari ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga drayver vazifasini bajarmoqda [10].

O'zbekistonda bandlikni ta'minlashda kichik biznesning ijtimoiy funksiyasidan samarali foydalanish muhim masala bo'lib, buning uchun bandlik dasturlarini ishlab chiqishda kichik tadbirkorlikning bozor sharoitida samarali foydalanish mumkin bo'lgan yakka tartibdagi va ommaviy ish o'rinlarini tashkil etish dastaklarini imkon qadar to'liq qamrab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi [11].

Keltirilgan tadqiqot ishlarida kichik biznesning bandlikni ta'minlashdagi roli va ahamiyati turli usullar asosida tahlil qilingan bo'lsa-da, ularning umumiy bandlikni ta'minlashdagi rolini miqdoriy baholash va ekonometrik modellash tirish masalalariga kamroq e'tibor qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Navoiy viloyati iqtisodiyoti sanoatning rivojlanganlik darajasi bo'yicha boshqa hududlarga nisbatan farq qiladi. Ya'ni, viloyatda mamlakatdagi yirik hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan sanoat korxonalarining mavjudligi kichik biznesning rivojlanishida o'ziga xosliklarni namoyon bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli viloyatda kichik biznesning rivojlanishi va bandlikni ta'minlashdagi rolini miqdoriy baholash masalasi ko'rib chiqildi.

Mazkur tahlilni amalga oshirish uchun 2010–2023-yillar ma'lumotlaridan foydalanildi. Ushbu davrda kichik tadbirkorlik subyektlarining bandlikni ta'minlashdagi ulushi 60,3 % va 50,8 % atrofida o'zgarib turgan bo'lsa, mamlakat miqyosida mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 78,2 % va 73,9 % ni tashkil etgani viloyatda kichik biznesni rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni ko'rsatadi.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining bandlar soni hamda aholi jon boshiga real daromadlarga ta'sirini baholash maqsadida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Bu yerda jon boshiga real daromad qiymat shaklida bo'lganligi sababli 2010-yil bazis sifatida qabul qilinib, o'zgarmas narxlarga o'tkazildi (1-jadval).

1-jadval

Korrelyatsion tahlil natijalari¹

	<i>K</i>	<i>B</i>	<i>JRR</i>	<i>BK</i>
K	1,0			
B	-0,3	1,0		
JRR	0,9	-0,1	1,0	
BK	-0,8	0,6	-0,6	1,0

Bu yerda: **K** — Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni; **B** — viloyatdagi bandlar soni, ming kishi; **JRR** — jon boshiga real daromadlar hajmi, ming so'mda (2010-yil narxlarida); **BK** — kichik tadbirkorlik subyektlarida bandlar soni.

Tahlil natijalaridan ko'radigan bo'lsak, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari bilan jami bandlar o'rtasida zaif, shu bilan birga, teskari bog'liqlik mavjud. Ushbu natija viloyatda kichik tadbirkorlik subyektlarini bandlikni ta'minlashdagi ijobiy jihatlaridan foydalanish talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, faoliyat ko'rsatayotgan kichik

¹ Excell dasturida olimgan natijalar

tadbirkorlik subyektlari soni bilan kichik tadbirkorlik subyektlarida bandlar soni o'rtasida yuqori, ammo teskari bog'liqlik kuzatilishi keltirilgan fikrimizni tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Biroq, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni va jon boshiga real daromadlar hajmi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik kuchli va musbat qiymatga ega. Jon boshiga real daromadlar hajmi bilan kichik tadbirkorlik subyektlarida bandlar soni o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikning -0,6 ga tengligi yuqorida keltirilgan fikrlarga aniqlik kiritish lozimligini asoslaydi.

Shuni hisobga olgan holda, kichik tadbirkorlik subyektlarining bandlikni ta'minlash hamda jon boshiga real daromadlarni oshirishdagi ahamiyatini regression tahlil asosida ko'rib chiqildi. Dastlab, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari bilan jami bandlar soni o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilganda, ta'sirni ifodalovchi koeffitsiyent Student mezon natijalari bo'yicha adekvat emasligi aniqlandi. Shu sababdan, yuqorida keltirilgan fikrlarning tasdig'i sifatida ta'sir mavjud emasligini ta'kidlash mumkin.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining ulardagi bandlar soniga ta'sirini baholash bo'yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$\ln[f_0](BK) = 6,52 - 0,12 * \ln[f_0](K)$$

Model natijalaridan amaliy xulosalar chiqarish maqsadida uning ishonchlilik darajasini asoslash masalasiga to'xtalib o'tamiz. Zarur bo'lgan mezonlar natijalari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Regression tahlil natijalari¹

Model 6: OLS, using observations 2010-2023 (T = 14)

Dependent variable: 1 BK

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
const	6.52165	0.203367	32.07	<0.0001	***
1 K	-0.116809	0.0221356	-5.277	0.0002	***
Mean dependent var	5.450237		S.D. dependent var	0.076029	
Sum squared resid	0.022631		S.E. of regression	0.043427	
R-squared	0.698844		Adjusted R-squared	0.673748	
F(1, 12)	27.84652		P-value(F)	0.000196	
Log-likelihood	25.12743		Akaike criterion	-46.25486	
Schwarz criterion	-44.97675		Hannan-Quinn	-46.37318	
rho	0.394819		Durbin-Watson	0.853908	

Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, modelning ikkala koeffitsiyenti ham Student testi natijalari bo'yicha adekvat, determinatsiya koeffitsiyenti esa 0,70 ni tashkil qiladi. Umumiy hisobda modelning ishonchliligi talab darajasida.

Model natijalarini ko'rsatishicha, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining bir foizga oshishi ulardagi bandlar sonining 0,12 foizga kamayishiga sabab bo'lgan. Chunki 2010–2023-yillarda viloyatda faoliyat

¹ Excell dasturida olimgan natijalar

ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3,6 barobarga oshgani ta'minlangan bo'lsa-da, ulardagi bandlar sonining 6 foizga kamayishi kuzatilmoqda.

Bundan ko'rinadiki, viloyatda kichik tadbirkorlik subyektlari sonidagi miqdoriy o'zgarishlar ijobiy natijalarni ko'rsatgan, ammo sifat ko'rsatkichlari pasaymoqda.

Kichik biznes subyektlari nafaqat bandlikni ta'minlaydi, balki aholi real daromadlarini va turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Buni hisobga olgan holda, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining jon boshiga real daromadlarga ta'sirini baholash maqsadida amalga oshirilgan regression tahlil natijalari avtokorrelyatsiya muammosi mavjudligini ko'rsatdi. Shu sababli quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan modeldan foydalanildi.

$$\ln(JRR) = 3,95 + 0,99 * \varepsilon_{t-1} + 0,52 * \ln(K)$$

Modeldagi barcha koeffitsientlar talab darajasida va ishonchlilik darajasi yuqori. Shu bilan birga determinatsiya koeffitsienti ham 0,92 ga teng bo'lgani holda omillarning ta'siri yuqori ekanligini asoslamogda (3-jadval).

3-jadval

Regression tahlil natijalari¹

Model 10: ARMAX, using observations 2010-2023 (T = 14)

Dependent variable: l_JRR

Standard errors based on Hessian

	Coefficient	Std. Error	z	p-value	
const	3.94830	0.674231	5.856	<0.0001	***
theta 1	0.999994	0.326271	3.065	0.0022	***
l_K	0.518908	0.0733812	7.071	<0.0001	***
Mean dependent var	8.713446		S.D. dependent var	0.288202	
Mean of innovations	0.006880		S.D. of innovations	0.081134	
R-squared	0.915385		Adjusted R-squared	0.908333	
Log-likelihood	13.94395		Akaike criterion	-19.88790	
Schwarz criterion	-17.33167		Hannan-Quinn	-20.12453	
		Real	Imaginary	Modulus	Frequency
MA	Root 1	-1.0000	0.0000	1.0000	0.5000

Ya'ni, bir so'z bilan aytganda kichik tadbirkorlik subyektlarining aholi jon boshiga real daromadlarini oshirishga ta'siri mavjud. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonini bir foizga oshirish aholi jon boshiga real daromadlarni 0,52 foizga oshishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada kichik tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar talab darajasida tashkil qilingan bo'lib, ularning soni 2010–2023-yillarda 3,6 barobarga oshgani ta'minlangan. Ammo ushbu o'zgarishning umumiy bandlar sonidagi o'zgarishga hech qanday ta'siri kuzatilmagan. Shu bilan birga, ushbu davrda kichik tadbirkorlik subyektlaridagi bandlar sonining kamayishi kuzatilgan. Qisqacha aytganda, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining bandlikka ta'siri mavjud emas.

¹ Excell dasturida olimgan natijalar

Aholi real daromadlarining o'zgarishi bilan faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti musbat va yetarlicha katta qiymatga ega. Regression tahlil natijalariga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining bir foizga oshishi jon boshiga real daromadlarni 0,52 foizga oshishini ta'minlaydi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, viloyatda tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda miqdoriy o'zgarishlar ta'minlanmoqda, biroq uning natijasida bandlik ko'rsatkichida kuzatilishi lozim bo'lgan ijobiy o'zgarishlar teskari natijalar bilan cheklanmoqda. Tahlillar har bir subyektga mos keladigan bandlar sonining 3,6 barobarga kamayganligini ko'rsatadi. Bu kichik biznesni rivojlantirishda ko'lam samaradorligiga e'tibor qaratish zarurligini asoslaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lara Al-Haddad, Muhammad Sial, Imdad Ali, Rahmat Alam, Khuong Nguyen Vinh, Thai Khanh (2019). *The Role of Small and Medium Enterprises (SMEs) in Employment Generation and Economic Growth: A Study of Marble Industry in Emerging Economy*. International Journal of Financial Research, 10, 174. doi:10.5430/ijfr.v10n6p174.
2. Chuma-Mkandawire, S. (2004, October 25–27). *National Economic Consultative Forum. Report on the Policy Implementation Workshop For SMEs*.
3. M. Ayyagari, A. Demirguc-Kunt, V. Maksimovic (2011). *Small vs. Young Firms Across the World: Contribution to Employment, Job Creation, and Growth*. World Bank Policy Research Working Paper No. 5631, Washington, DC.
4. ILO (2019). *Small Matters: Global Evidence on the Contribution to Employment by the Self-employed, Micro-enterprises and SMEs*. Geneva, Switzerland.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.
6. Phillips, M., Moos, M., Nieman, G. (2014). *The Impact of Government Support Initiatives on the Growth of Female Businesses in Tshwane, South Africa*. Mediterranean Journal of Social Sciences, 5(15), 85–92.
7. Haque, M. R., Kabir, M. Z., Rahman, M. M., Chowdhury, S. P., Islam, S. (2017). *Entrepreneurial Intentions: A Study on Students from Countryside University*. Asian Economic and Financial Review, Vol. 7, No. 10, 972–980.
8. Kok, J. M. P., Vroonhof, P., Verhoeven, W., Timmermans, N., Kwaak, T., Snijders, J., Westhof, F. (2011). *Do SMEs Create More and Better Jobs?* Report prepared by EIM for the European Commission DG Enterprise and Industry, Brussels, European Commission.
9. Ayyagari, Meghana, Demirguc-Kunt, Asli, Maksimovic, Vojislav. (2014). *Who Creates Jobs in Developing Countries?* Small Business Economics, 43, 75–99. doi:10.1007/s11187-014-9549-5.

10. Ayyagari, M., Demirgüç-Kunt, A., Maksimovic, V. (2011). *Small vs. Young Firms Across the World: Contribution to Employment, Job Creation, and Growth*. World Bank Policy Research Working Paper, (5631).
11. G'afurov, U. V. (2018). *Kichik biznes subyektlarining bandlikni ta'minlashdagi ishtirokini rag'batlantirish*. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, № 2, mart–aprel.
12. Elov, O. K., Kholboyeva, M., Pirmamatova, N. (2024). *Consumer Behavior and Marketing Strategy*. World of Scientific News in Science, 2(2), 722–726.
13. Elov, O. K., Kholboyeva, M., Pirmamatova, N. (2024). *Consumer Behavior and Marketing Strategy*. World of Scientific News in Science, 2(2), 722–726.